

*Muallif: Beknazarova Mohichehra*

### **Kirish**

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi butun dunyoni tashvishga solayotgan eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Yer yuzida haroratning oshib borishi, qurg‘oqchilik, suv tanqisligi, kuchli yog‘ingarchiliklar va turli tabiiy ofatlarning ko‘payishi iqlim o‘zgarishining asosiy oqibatlarini hisoblanadi. Ushbu muammo nafaqat tabiatga, balki insonlarning kundalik hayoti, salomatligi va iqtisodiy faoliyatiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

### **Iqlim o‘zgarishi nima?**

Iqlim o‘zgarishi – bu Yer atmosferasida uzoq vaqt davomida sodir bo‘ladigan harorat, yog‘ingarchilik va boshqa ob-havo ko‘rsatkichlarining o‘zgarishidir. Olimlarning fikricha, iqlim o‘zgarishining asosiy

sabablaridan biri inson faoliyati natijasida atmosferaga zararli gazlarning ko‘p miqdorda chiqarilishidir. Sanoatning rivojlanishi, avtomobillar sonining ortishi, o‘rmonlarning kesilishi va yoqilg‘idan haddan tashqari foydalanish natijasida atmosferada karbonat angidrid miqdori ortib bormoqda. Bu esa global isishga sabab bo‘lmoqda.

### **Global isishning oqibatlarini**

Global isish natijasida Yer yuzidagi o‘rtacha harorat yil sayin oshib bormoqda. Buning oqibatida muzliklar erimoqda, dengiz va okeanlar sathi ko‘tarilmoqda. Ayrim hududlarda qurg‘oqchilik kuchaysa, boshqa hududlarda kuchli yomg‘irlar va suv toshqinlari kuzatilmoqda. Shuningdek, kuchli shamollar, dovullar va boshqa tabiiy ofatlar soni ham ortib bormoqda. Bu holatlar insonlar hayoti va iqtisodiyotiga katta zarar yetkazadi.

### **Qishloq xo‘jaligiga ta’siri**

Qishloq xo‘jaligi iqlim sharoitiga bevosita bog‘liq sohalardan biridir. Haroratning ortishi va suv resurslarining kamayishi hosildorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Qurg‘oqchilik natijasida ayrim ekinlar yaxshi hosil bermaydi. Suv tanqisligi esa dehqonchilik rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli zamonaviy sug‘orish usullaridan foydalanish va suvni tejash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

### **Inson salomatligiga ta’siri**

Iqlim o‘zgarishi inson salomatligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Havoning haroratining keskin oshishi yurak-qon tomir kasalliklari, nafas yo‘llari kasalliklari va turli yuqumli kasalliklarning ko‘payishiga sabab bo‘lishi mumkin. Atrof-muhitning ifloslanishi va havoning sifati yomonlashishi ham insonlar sog‘ligiga zarar yetkazadi.

### **O‘zbekiston va iqlim o‘zgarishi**

Mamlakatimizda ham iqlim o‘zgarishining ayrim ta’sirlari kuzatilmoqda. Ayrim hududlarda suv

10-Iyun, 2026-yil

tanqisligi, yoz oylarida havo haroratining yuqori bo‘lishi va qurg‘oqchilik holatlari ko‘paymoqda. Shu sababli O‘zbekistonda ekologiyani muhofaza qilish, yashil hududlarni kengaytirish, daraxt ekish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

### **Oldini olish yo‘llari**

Elektr energiyasidan tejamkor foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, daraxt ekish va havoni ifloslantirmaslik muhim ahamiyatga ega. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ekologik transport vositalarini rivojlantirish ham muhim omildir.

### **Xulosa**

Iqlim o‘zgarishi butun insoniyat uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Tabiatni asrash, ekologik madaniyatni rivojlantirish va resurslardan oqilona foydalanish orqali kelajak avlod uchun sog‘lom va toza muhitni saqlab qolishimiz mumkin.